

KEKSALIK YOSHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Boltayev Sardor Ibotovich

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Keksalik ijtimoiy-psixologik fenomen sisatida ko'rilar ekan, inson hayotining poyoniga yetuvchi mazkur yosh davri o'ziga xos psixologik xususiyatlarga ega. Binobarin, keksalik, qarilik, uzoq umr ko'rish holatlari kishi hayotining har bir jahhasida (har ikkala jins vakillari uchun ham) o'ziga xos ahamiyatga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Shunday ekan, kishi umrining oxirgi pallasida o'z hayotini sarhisob qilishi barobarida bosib o'tgan yo'li, qadriyatlar mazmuni, oilaviy munosabatlar, ijtimoiy munosabatlar, farzandlar o'rtasida, qarindoshlar o'rtasida insoniy munosabatlarga alohida urg'u berish kabi holatlar ko'zga tashlanadi.

Tayanch so'z va tushunchalar: keksalik, qarilik, qarish jarayoni, gerontologiya, yetakchi faoliyat, ijtimoiy faoliyat, shaxslilik xususiyatlari, ijtimoiy-psixologik mavqe.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПОЖИЛОГО ВОЗРАСТА

Boltaev Sardor Ibotovich

Исследователь Ташкентского государственного педагогического университета им. Низами

Аннотация: Возраст, рассматриваемый как социально-психологический феномен, имеет специфические психологические особенности. Следовательно, старость, долголетия отличаются уникальной значимостью каждого аспекта жизни человека (для представителей обоих полов). Таким образом, в последней части жизни человека видны такие обстоятельства, как путь, который он преодолел в разы, содержание ценностей, семейные отношения, социальные отношения, особое внимание к человеческим отношениям между детьми, родственниками.

Основные слова и понятия: старость, старение, процесс старения, геронтология, ведущая деятельность, социальная деятельность, особенности личности, социально-психологическое положение.

PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE ELDERLY

Boltaev Sardor Ibotovich

Researcher of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami

Abstract: Age, seen as a socio-psychological phenomenon, has specific psychological features. Therefore, old age, longevity are distinguished by the unique significance of each aspect of human life (for both sexes). Thus, in the last part of a person's life, such circumstances are visible as the path that he overcame at times, the content of values, family relations, social relations, special attention to human relations between children and relatives.

Basic words and concepts: old age, aging, aging, gerontology, leading activities, social activities, personality characteristics, socio-psychological situation.

Mamlakatimizdagi mustaqil, huquqiy demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyat qurish yo'lidagi ulkan ishlar inson mohiyatini yangidan kashf qilishga, uning o'zligini anglashdagi imkoniyatlarini ro'yogha chiqarishga yangi shart-sharoitlar yaratib bermoqda.

Hozirgi davr psixologiya fanining asosiy e'tibori sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilish, ruhan, ma'nani, jismonan sog'lom avlodni tarbiyalash va kasalliklarni oldini olishga qaratilgan. Taraqqiy etgan mamlakatlarda uzoq, to'laqonli umr ko'rishning yagona yo'li sog'lom turmush tarzi hamda ruhiy salomatlik ekanligi isbotlangan. Odatda, qarilik haqida so'z ketganda, beixtiyor xayolga ojizlik, qaramlik, kasallik holati keladi. Yo'q, qarilik – kasallik emas, komillik pallasi.

Qarilik - umrning eng mazmunli, serhosil fasli. Insonning umr davomida yig'ilgan yashirin imkoniyatlari yoshi ulg'ayganda ochilib, aqli to'lishib teran fikrlaydi, kashfiyotlar qiladi. Qarilikdan qo'rqishmas, hayot davomida orttirgan tajribaga tayanib, aqlu shijoat bilan ishslash va yashash lozim.

Insonning qarish jarayonini o'rganishdan maqsad keksayish paytida sog'lom turmush kechirish, o'zini o'zi mustaqil parvarish qilish, ruhiy noqisliklarni oldini olishga erishishdan iborat. Keksa yoshdag'i

odamlarda kasalliklarning kechish jarayoni ularning yoshi va ruhiy holatga bog'liq. Ular bilan ana shu jihatni hisobga olib muloqot qilish, ularni parvarishlash sog'liqni saqlash tizimining muammolaridan biri. Shuning uchun ham bugungi kunda psixologiya fanida «Gerontopsixologiya» tarmog'iqa katta e'tibor berilmoqda. Bu bo'lim yoshga aloqador bo'lgan fiziologik o'zgarishlar va rivojlanayotgan patologik o'zgarishlar o'rtasidagi boq'liqlikni va shu bilan birga organizmni qarish sabablari, mexanizmi hamda qariyotgan organizmni psixologik jihatdan o'ziga xos tomonlarini o'rganadi.

Fanning rivojlanishi bilan bir qatorda mustaqillik yillarda Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan "Keksalarni e'zozlash yili" deb e'lon qilingandan keyin [2] muttasil ravishda keksa avlod vakillariga astoydil g'amxo'rlik ko'rsatish, uni to'xtovsiz sur'atlarda amalga oshirish, doimiy ravishda davlatimiz e'tiborida bo'lgani beziz emas. Binobarin, Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2016-yilning 28-dekabr kuni "O'zbekiston faxriylarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash "Nuroniy" jamg'armasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmon va "Keksalar va nogironlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorni imzoladi [1]. Bularning bari keksalarni qo'llab-quvvatlash davlat tizimini yanada takomillashtirish maqsadida qariyalar va faxriylarni ijtimoiy himoyalash, ularning faolligini oshirish, mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida to'laqonli ishtirok etishlari uchun shart-sharoitlar yaratish, tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash sohasida katta avlod vakillarining rolini oshirish uchun qabul qilingan.

Joylarda keksalar turmush sifatini oshirish, ularning ijtimoiy faolligini qo'llab-quvvatlash, mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi ishtirokini ta'minlash sohasidagi davlat siyosatini amalgaga oshirishga ko'mak berish hamda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan hamkorlikda oilalarda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash, yoshi keksa faollarni bolasi bor muammoli oilalarga biriktirish, shuningdek yolg'iz va muhtoj keksalarga ijtimoiy va moddiy ko'mak ko'rsatish, shuningdek, "Nuroniylar maskani" komplekslarini yaratish va ularda o'quv zallari, hordiq xonalari, davolash fizkulturasi, shuningdek ovqatlanish xonalari va tibbiy kabinetlarni tashkillashtirish orqali uzoq umr ko'rish, hayot sifatini oshirish nazarda tutilgan. Buning natijasida kasalliklarni o'z vaqtida aniqlash va davolash uchun 2,8 million keksa yoshdagagi fuqarolarning barchasi ixtisoslashtirilgan tibbiy brigadalar tomonidan chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tkazilishini ta'minlash; biriktirilgan patronaj hamshiralari tomonidan salomatliklari ustidan doimiy nazorat orqali keksa yoshdagagi fuqarolar orasida kasalliklar profilaktikasi choralarini kengaytirish, 15,5 ming yolg'iz keksalarning turmush sifatini va turmush darajasini ularga shaxsiy ijtimoiy xodimlarni biriktirish orqali oshirish va keksa yoshdagagi shaxslarni ularga to'lovsiz asosda davolash va sog'lomlashtirishga erishiladi. Shu munosabat bilan respublika ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlariga 20 ming va viloyatlardagi tibbiyot muassasalariga 215 mingdan ziyod, jami 178,9 milliard so'm miqdoridagi orderlar ajratish ko'zda tutilgan. Urush va mehnat faxriylari, yolg'iz pensionerlar va nogironlar salomatligini har yil bu kontingentga kirgan 34 ming odamni 18 milliard so'm miqdorida sanatoriya-davolash muassasalarida bepul sog'lomlashtirish yo'li bilan salomatliklarini yaxshilashga alohida e'tibor qaratiladi.

Qarordan ko'rinish turibdiki, bugungi kunda keksalarimizga avvalgidan ham ko'proq g'amxo'rlik ko'rsatish o'ta zaruriy ahamiyatga ega ekanligi hamda ushbu yosh vakillarini yanada chuqurroq o'rganish ahamiyatli vazifa ekanligi qaror mazmunida aks etgan va albatta, mazkur masalalar muammoning dolzarbligini belgilab beradi. Bugungi kun psixologlari zimmasida gerontopsixologiya bilan bog'liq muammolarni tadqiq etish va ularni yangi ilmiy bilimlar bilan boyitish turibdi. Shunday ekan, ularning psixologiyasini o'rganish, turmush sifatini yaxshilash, ruhiy-asab barqarorligini ta'minlash kabi vazifalar orqali keksa avlod vakillariga psixologik xizmat ko'rsatish muhim ahamiyat kasb etadi.

Sharqning buyuk allomalari hisoblangan Abu Nasr Forobi, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg'ariy, Kaykovus, Hotam Ibn Toy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Rizouddin Ibn Faxriddin, Muqimiyy, Furqat, Zavqiy, Uvaysiy, Maxtumquli, Nodira, Abdulla Avloniy kabi ko'plab olim va yozuvchilar, shoiru adiblar - keksalar, yoshi ulug'lar muammolari hamda ularning ijtimoiy munosabatlari ta'sirini o'z asarlarida bayon qilganlar.

Bir qator xorij va rus tadqiqotchilari tomonidan K.Xoll, F.Arnes, Dj.Tyorner, D.Xelms, E.B. Xarlok, D.B.Bromley, Dj.Birren, E. Erikson, B.Livexud, R.Pekk, E.Shtern, G.A.Sukerman, A.A.Bogomols, I.I.Mechnikov, B.Prjigod, N.F. Shaxmatov, I.V. Davidovskiy, L.I. Anferova, V.I.Slobodchikov, B.G. Ananev, G.A.Abramova, T.V.Karsaevskaya kabilar keksalik davriga xos fiziologik, ruhiy, ijtimoiy holat va muammolarni tadqiq etganlar. O'zbek olimlaridan mazkur masalaga oid ishlar kamroq ko'zga tashlanadi.

Shunday bo‘lishiga qaramasdan E.G‘. G‘oziyev yosh davrlari nuqtayi nazaridan, Z.T.Nishonova, V.M. Karimova, G‘.B.Shoumarov ijtimoiy masalalarini, Sh.R. Barotov keksalarga psixologik xizmat ko‘rsatish doirasida, B.R. Qodirov, Z.Ibodullayev keksalik davrining tibbiy-psixologik muammolari, N.S. Safayev, A.Begmatov, B.Umarov va boshqalar falsafiy, psixologik va boshqa sohalarda keksalik masalalariga alohida to‘xtalib o‘tganlar.

Psixologik yosh sifatida kechki kamolotga yetish [3] (kattalik) qarilik — bu insonning jamiyatdagi va hayot sikli tizimida o‘zining o‘ziga xos rolini o‘ynaydigan pozitsiyalarining o‘zgarishini o‘z ichiga qamrab oladigan hayotning yakuniy davridir. Qarilik murakkab bioijtimoiy psixologik hodisa sifatida talqin qilinadi. Biologik fenomen (hodisa) sifatida qarilik organizm zaifligining ortishi, o‘lim ehtimolining oshishi bilan bog‘liq.

Ijtimoiy hodisa sifatida qarilik odatda nafaqaga chiqish, ijtimoiy mavqening o‘zgarishi (pasayishi), muhim ijtimoiy rollarni yo‘qotish, ijtimoiy olamni torayishi bilan assotsiatsiya qilinadi. Qadimdan hayotning og‘ir, harakatsiz, “yakuniy umr” davri sifatida qarilik haqidagi tasavvurlar mavjud bo‘lgan. Ijtimoiy gerontologiya asoschisi Dj. Xoll shunday yozgan: “Qarilikni bilish uzoq murakkab, mashaqqatlari tajribadir: har bir yangi o‘n yillikda bizning faoliyatimizni jadalligi va davomiyligini chegaralaydi. Psixologik darajada sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni anglash hamda ularga ozmi – ko‘pmi moslashish haqida so‘z bormoqda. Inson uchun qarilik o‘zi bilan nima olib keladi? Qarilik ko‘pincha xo‘rlanish hamda yurak ezilishi sifatida qabul qilinadigan, qarilik, tobelik holatiga olib keluvchi, yo‘qotish va judolik davri (iqtisodiy, ijtimoiy, individual) bo‘lishi mumkin. Ammo ijobiy ko‘rinishda qarilik – bu yoshga bog‘liq o‘zgarishlar va hayotning yangi talablariga moslashish vazifasini hal etishga yordam beradigan, tajriba, bilish va shaxs imkoniyatlarini umumlashtirishdir. Qarilik davrida butun hayotni, uning mohiyati va mazmunini, avvalgi va keyingi avlodlar oldidagi uning majburiyatlarini chuqur tushunish va aniqlab olish mumkin. Qarilik boshlanishini xronologik chegaralarini aniqlash juda murakkab, chunki qarish belgilarini paydo bo‘lishida individual farqlarning oralig‘i katta. Bu belgilar insoniyat organizmining funksional imkoniyatlarini asta-sekin pasayishida namoyon bo‘ladi. Biroq, qarilikni yetuklik bilan taqqoslagan holda alohida qobiliyatlarning so‘nishini ajratish asosida, faqat (negativ) salbiy tomondan tavsiflash kerak emas. Keksa inson psixikasining sifat jihatdan farqlarini aniqlash, asab tizimlarining involyutsion o‘zgarishi sharoitlarida, psixofiziologiyaning yomonlashuvi vaziyatida sodir bo‘ladigan psixik rivojlanishning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash va ko‘rsatish zarur [6].

Qarilik (keksalik) — organizmda yetuklik davridan so‘ng keladigan yoshga bog‘liq muayyan davr. A’zo va tizimda o‘ziga xos o‘zgarishlar ro‘y beradi. Bu esa organizmni hayotga moslashuv imkoniyatlarini cheklanishga olib keladi. Odamlarning keksalik davri — 75-90 yosh hisoblanadi. 90 yoshdan oshgan kishilar uzoq umr ko‘rvuchilardir. Qarilik — yoshlik lazzatining xumori, yigitlikdagi sog‘lomlikni hasrat-la qo‘msash davri.

Odamlarning aksariyati uzoq yashashni istaydilar, qarishni xohlamaydilar. Ammo qarish □ bu tug‘ilgan zahoti boshlanadigan va umr bo‘yi davom etadigan jarayon. Odamlar qarib borganlari sari ularda qanday holatlar sodir bo‘lishini yaxshi bilamiz. Organizmning barcha xizmat vazifasi va tashqi ta’sirga javobi sustlashadi. Ayrimlarda kuchdan qolish, sezgirlikning yo‘qolishi, bo‘y va og‘irlikda yo‘qotishlar ro‘y berishi bilan namoyon bo‘ladi. Qarishga ko‘zning xiralashishi, qulquning yaxshi eshitmasligi yo‘ldosh bo‘ladi; sochlardan, teri burishadi, suyaklar o‘z elastikligini yo‘qotadi.

Hamma ham bir xil qarimaydi. Ammo yosh o‘tib borgan sayin ma’lum o‘zgarishlardan qochib qutilib bo‘lmaydi. Bu tana to‘qimalari va a’zolaridagi o‘zgarishlardir. Masalan, buyrak, jigar, oshqozon osti bezi va taloq to‘qimalarining hujayralari buzila boshlaydi. Bu qon tomirlarining qariy boshlashi, egiluvchanligining yo‘qolishi, to‘qimalar ta’mintonining yomonlashuvi tufayli sodir bo‘ladi. Qalqonsimon va boshqa bezlarning faoliyati ham xuddi shu yo‘sinda yomonlashadi. Organizmdagi barcha aylanuvchi tizim yosh o‘tishi bilan o‘zgarib, qiyinchilik bilan faoliyat ko‘rsata boshlaydi. Bu o‘zgarishlar tufayli yashash murakkablashadi. Ko‘z, qulq, suyak va bo‘g‘imlar, qon, teri, soch, tirnoq, va tishlar barchasi ishdan chiqsa boshlaydi.

Qarish jarayonida oshqozon tizimida oshqozon shirasining miqdori kamayadi. Oshqozon va ichak muskullarining tonusi yo‘qoladi, qon aylanishi buziladi. Ana shuning uchun ham keksalarga maxsus parhez tayinlanadi.

Bunday o‘zgarishlar biologik xususiyatga ega bo‘lib, ularning oldini to‘la olish mumkin emas. Sodda qilib aytganda, to‘qima va a’zolar o‘z faoliyatini bajara olmay qoladi. Ammo bunda bir xillik bo‘lmaydi.

Oltmis yoshli kishida ayrim to‘qima va a’zolar sakson yoshli kishinikiga o‘xhash bo‘lishi mumkin. Boshqa a’zolar juda yaxshi holatda xuddi qirq, o‘ttiz va hatto yigirma yoshli odamnikidek bo‘lishi ham mumkin.

Qarilikdagi rivojlanishning ijtimoiy-psixologik holati asosiy tavsifi ishlab chiqarish faoliyatidagi faol ishtirokdan uzoqlashish bilan bog‘liq. Jamiyatda mavjud bo‘lgan qarilikning “madaniy etalonlari” ni cheklangan va salbiy (xarakteri) xususiyati hamda oiladagi keksa insonga nisbatan ijtimoiy kutuvlarning noaniqligi keksa inson hayotining ijtimoiy holatini rivojlanishning to‘liq holati sifatida talqin qilishga yo‘l qo‘ymaydi. Nafaqaga ketayotib inson “qari bo‘lish qanday?”ligi masalasini hal etishda muhim, qiyin va mutlaqo mustaqil tanlov zaruriyati bilan to‘qnashadi.

Inson o‘zining keksayishiga nisbatan, faol, ijodiy yondashuvi birinchi darajaga chiqib oladi. Hayotning ijtimoiy holatlarini rivojlanish holatiga aylanishi bu ayni damda har bir keksa insonning individual shaxsiy vazifasidir. Ijtimoy pozitsiyani (holatni) o‘zgarishiga hozirlikni shakllantirish (hosil qilish) sifatida ko‘rib chiqiladigan nafaqaga chiqishga tayyorgarlik — 5-6 yoshda maktab ta’limiga hozirlik ko‘rish yoki o‘spirinlikdagi proforientatsiya, kasb tanlovi singari, qarilikdagi psixik rivojlanishning muhim davridir. Qarish strategiyalari tanlovi, “qarilikni boshdan kechirish”ning umuminsoniy muammolarini hal etilishi qandaydir bir lahzali harakat sifatida tor doirada talqin etilmaydi, bu bir qancha shaxs inqirozlarini yengib o‘tish bilan bog‘liq bo‘lgan yillarga cho‘zilishi mumkin bo‘lgan jarayondir [5].

Qarilik (ostonasida) bo‘sag‘asida inson o‘zi uchun quyidagi masalalarni: u yangi ijtimoiy aloqalarini yaratishga, shuningdek, eskilarini saqlab qolishga yoki o‘zining shaxsiy muammolarini bo‘lgan individual hayotga va yaqinlarining qiziqishlar doirasidagi hayotga o‘tishga harakat qilish-qilmaslikni hal qiladi. Bu tanlov moslashishning u yoki bu strategiyasini — o‘zini shaxs sifatida saqlab qolish va o‘zini individ sifatida saqlab qolishni aniqlaydi. Ushbu tanlov hamda moslashuv strategiyalari bilan muvofiqlikda qarilikdagi yetakchi faoliyat yo inson shaxsini saqlab qolinishiga (uning ijtimoiy aloqalarini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish) yo psixofiziologik funksiyalarni asta-sekin so‘nish sharoitida uni individ sifatida yakkalanishi, individuallashuvi va “sizib chiqarilishiga” qaratilgan. Qarilikning har ikkala ko‘rinishi ham moslashuv qonuniga bo‘ysunadi, ammo hayotning va hatto, uning davomiyligini turli xildagi sifatni ta’minlaydi.

“Odamovilik shaklidagi tipda” moslashuv strategiyalari qiziqishlarning umumiy pasayishi va tashqi olamga da‘vogarlik, egotsentrizm, emotsiyal narozatning sustlashishi, berkinish istagi, vaqt o‘tishi bilan atrofdagilarga nisbatan e’tiborsizlikni shakllantiradigan, diskomfort, jizzakilik hislarida namoyon bo‘ladi. Namuna sifatida qarishning bunday modeli haqida “sust qarish”ni “egoistik sanksiyalar” tipidagi xulq-atvorni tasvirlab, gapiradilar [4].

Bir qator longevityud tadqiqtari natijasiga ko‘ra o‘rta yoshdan keksalikka o‘tishda muhim shaxs aspektlari o‘zgarmay saqlanib qoladi. Doimiylik, masalan, neyrotizm darajasi (xavotirlanish, ruhiy tushkunlik, impulsivlik (beixtiyorlik), ekstraversiya va introversiya nisbati, tajribaga ochiqlik darajasi kabi shaxs tavsiflariga taalluqlidir. Bir qator mualliflar fikriga ko‘ra, qarilikda yangi hayot pozitsiyasi kam ishlab chiqiladi. To‘g‘rirog‘i, bu yangi sharoitlar ta’siri ostida mavjud bo‘lgan hayotiy pozitsiyalarni qat’iylashtirish va modifikatsiya qilishdir.

Keksa yoshdagagi inson shaxsi baribir o‘z-o‘ziga qoladi, ya’ni o‘zligini yosh davrining istalgan davrida namoyon etadi, ayniqsa, keksalik davrida uning kuchayishi sezilarli darajada ahamiyati ortadi. Amerikalik psixologlarning empirik tadqiqtalarida nafaqadagi yoki qisman band bo‘lgan erkaklar o‘rganilganda shaxs xususiyatlarining 5 ta asosiy tipi ajratilgan [7]:

Konstruktiv tip – ichki muvozanatlilik, ijobjiy emotsiyal yo‘nalganlik, o‘ziga nisbatan tanqidiylik va boshqalarga beg‘arazlik xarakterlidir. Hayotga nisbatan optimistik ustanovka kasbiy faoliyat yakunlangandan so‘ng ham saqlanib qoladi. Keksa va qari odamlarning bu guruhini o‘z-o‘ziga bahosi juda yuqori, ular kelajakka rejalar tuzadilar, atrofdagilarning yordamiga umid qiladilar.

Tobe tip – ham ijtimoiy maqbul va yaxshi masalalardan turmush o‘rtoq yoki farzandiga bo‘ysunuvchanlikda, yuqori hayotiy va kasbiy talablarining kuzatilmaganida namoyon bo‘ladi. Emotsional muvozanat oilaviy muhit ichidaligi va atrofdagilar yordamiga umid qilish tufayli saqlanib qoladi.

Himoyalovchi tip □ mubolag‘ali emotsiyal vazminlik xatti-harakat va odatlarda birmuncha dangallik, “o‘z-o‘zini mamnunlashga intilish”, boshqa kishilar yordamini xohlamasdan qabul qilish xarakterlidir. Boshlanayotgan qaramlikka nisbatan (mudofaa) himoya munosabatida bo‘lgan odamlar.

Shiori – hatto “kuchdan ortiq” faollikdir. Nevrotik tip sifatida baholanadi.

Agressiv ayblovchi tip □ bunday xususiyatlar to‘plashishga ega bo‘lgan odamlar. O‘z omadsizligidagi aybdorlik va javobgarlikni boshqa odamlar zimmasiga “yuklashga” intiladilar, tezda portlovchi va shubhalanuvchandirlar. Ular o‘zining qarishini tan olmaydi, nafaqaga chiqish haqidagi o‘y-xayollarini inkor etadi, yo‘qolib borayotgan kuchi va o‘lishi haqida ma’yus o‘ylanib qoladi, yoshlarga barcha “yangi notanish olamga” (nafrat) adovat bilan munosabatda bo‘ladi. Ularning o‘zi va olam haqidagi tasavvurlari noadekvat sifatida baholanadi.

O‘z-o‘zini ayblovchi tip – (passivlik) sustlik, qiyinchiliklarni qabul qilishda mos emaslik, depressiyaga moyillik, tashabbussizlik kuzatiladi. O‘lim baxtsiz mavjudlikdan xalos bo‘lish sifatida qabul qilinganda yolg‘izlik, ajralish hissi, hayotini pessimistik baholash qayd etiladi.

Adabiyotlar tahlilidan ko‘rinib turibdiki, qarilik yosh davrining muayyan bir davri bo‘lib, yakuniy bosqich sifatida kuzatiladi. Tabiiyki, o‘lim oldi qo‘rquvlarning namoyon bo‘lishi, ijtimoiy qarish sifatida jamiyatdan uzoqlashish, biologik qarish sifatida organizmning qarishi, unda qarish jarayoni kechishi bilan bog‘liq turli xastaliklar, yo‘qotishlar hamda psixologik qarish sifatida inson ruhiyatidagi jiddiy o‘zgarishlarni sanab o‘tish mumkin.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 28-dekabrdagi “Keksalar va nogironlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-2705-son qarori. // www.lex.uz // <https://www.gazeta.uz/oz/2016/12/29/keksalar/>
2. 2015-yilning 18-fevralida qabul qilingan “Keksalarni e’zozlash yili” Davlat dasturi to‘g‘risidagi qarori. // “Xalq so‘zi” gazetasi. 2015-y.
3. G‘oziyev E. Psixologiya (Yosh davrlari psixologiyasi). – Toshkent, “O‘qituvchi”, 1994. – 224 b.
4. Альперович В.Д. Старость. Социально-философский анализ. – Ростов н/Д: Изд-во СКНЦ. ВШ. 1998. – 104 с.
5. Ермолаева М.В. Практическая психология старости. – М. ЭКСМО-Пресс, 2002. – 320 с.
6. Краснова О.В. Социальная психология старости: Учебное пособие/О.В. Краснова. АГ Лидер – М.: Академия, 2002. – 288 с.
7. Лазарева Л.П. Геронтология. Курс лекций./ Л.П. Лазарева – Хабаровск: Изд-во ДВГУПС, 2002. – 167 с.